



**“MUBOLAG‘A” SEMANTIKASI VA UNI VOQEALANTIRUVCHI VERBAL HAMDA  
NOVERBAL VOSITALARINING LINGVOKOGNITIV MAYDONI.**

**Mansurjonova Gulbaxor Muxammadsobir qizi**

FarDU, amaliy ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy ishda ingliz va o‘zbek adabiyotida uchrovchi mubolag‘a san‘ati va uni voqealantirib beruvchi verbal hamda noverbal vositalar haqida fikrlar bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mubolag‘a, klassik shariyat, konsept, metafora, verbal vosita, noverbal vosita.

Ingliz va o‘zbek tillari adabiyotlarida biz mubolag‘a san‘ati qo‘llanilgan turli janrdagi asarlarni uchratishimiz mumkin. Mubolag‘a san‘ati muallif bayon etayotgan fikrni bo‘rttirib ifodalash, uni me‘yordan ortiq darajada ekanligini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Uni to‘laqonli tushunish uchun, avvalo, “Mubolag‘a” konseptiga ta‘rif berishni joiz deb bilamiz. “Mubolag‘a” so‘zi grekcha “hyperbole” so‘zidan olingan bo‘lib, “bo‘rttirib ijro etmoq” degan ma‘noni ifodalaydi hamda u nutq birligi hisoblanib, biron narsa, voqea, shaxs kabilarni alohida ta‘kidlab ko‘rsatish maqsadida fikrlarni bo‘rttirib, ularning haddan ziyoda ekanligini taqazo etadi. Mubolag‘a biz kundalik hayotimizda juda ko‘p hollarda foydalanadigan nutq birligi hisoblanadi. Masalan:

a) It has been ages since I last saw you. (Seni uchratganimga necha asrlar bo‘ldi. )

b) I am trying to solve a million issues these days. (Shu kunlarda men millionta masalani hal etyapman)



Mubolag'ani o'rganishda uni simile va metafora bilan chalkashtirib yubormaslik juda muhim. Haqiqatan, mubolag'a metafora va simile singari qiyoslashni hosil qiladi, lekin mubolag'a kuchaytirish orqali yumoristik ta'sirni vujudga keltiradi. Ingliz badiiy adabiyotlarida ham undan turli adiblar va shoirlar mohirona foydalanishgan. Masalan:

a) I'll love you dear, I'll love you

Till China and Africa meet

And the river jumps over the mountain

And the salmon sing in the street,

I'll love you till the ocean

Is folded and hung up to dry. (W.H. Auden "As I walked one evening", p.144)

b) I had to wait in the station for ten days- an eternity. ( Joseph Conrad "The Heart of darkness", p. 55)

Sharq klassik she'riyatida mubolag'a san'atiga she'r ziynati sifatida qaraganlar. "Ahzanahu akzabahu" (Eng yaxshi she'r- eng yolg'on she'rdir) degan naqlga amal qilishgan. Bu she'riy san'atdan deyarli barcha sharq shoirlari o'zlarining g'azal, tuyuq, ruboiy va boshqa janrdagi asarlarida foydalanishgan. Masalan: To'rt sadaf gavharining durji ul,

Etti falak axtarining burji ul. (A.Navoiy "Hayrat ul-abror", 475-bet)

Xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, dostonlarda hamda mumtoz adabiyotimizda ba'zan orttirmali mubolag'alar ham uchraydiki, ularga ishonish va tasavvur qilishning mutlaqo iloji yo'q. Masalan:

a) Oh ursa, olamni buzar tovushi,

To'qson molning terisidan kovushi. ("Alpomish" dostonidan, 42-bet)

b) Tikilsam quriydi daryoning gumi,



Na'ra tortsam qular qo'rg'onning timi. ("Alpomish" dostonidan, 69-bet)

Yuqoridagi rejada ta'kidlab o'tganimizdek, konseptlar yaxlit mental tushunchalar hisoblanib, insonning ong va tafakkuri mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Konseptlar har bir yozuvchi yoki so'zlovchining konseptosferasida mavjud bo'ladi. "Mubolag'a" konsepti yoxud "mubolag'a" konseptual semantikasi ham o'zining kommunikativ jihatdan muhimligi va muloqot uchun zaruriy vosita ekanligi bilan farqlanadi. Bu esa "mubolag'a" semantikasining universal tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi hamda u har qanday tilda uni moddiylashtiruvchi ya'ni voqelantiruvchi til unsurlari tizimi mavjudligini isbotlaydi.

"Mubolag'a" semantikasi turli tizimli tillarda verbal hamda averbal vositalar orqali ifodalanadi. Quyida "mubolag'a" semantikasini ifodalovchi verbal vositalar guruhi bilan tanishib o'tamiz:

**1) Fonema** (So'zdagi biror bir unli yoki undosh tovushning cho'ziqroq talaffuz etilishi natijasida "mubolag'a" semantikasi ifodalanadi hamda bu usul *prolongatsiya* atamasi bilan yuritiladi.) Ingliz tilida *so*, *rather*, *quite*, *very*, *such* va *hokazo*. Masalan: The effort of resolution necessary to the achievement of this purpose, I found to be quite awful. (Charles Dickens "Great Expectations", p. 16 )

O'zbek tilida ham *prolongatsiya* usuli "mubolag'a" semantikasini ifodalash uchun ko'p qo'llaniladi. Bu usulda so'zdagi mavjud biror tovush cho'zib talaffuz etiladi: *allaqachon*, *ancha*, *sovuq*, *uzoq* va *hokazo*. Ona tilimizda "Mubolag'a" konseptual semantikasini moddiylashtiruvchi vositalardan yana biri bu- so'zning dastlabki bo'g'inining ikkilantirilishidir: *qop-qora*, *qip-qizil*, *sap-sariq*, *ko'm-ko'k*, *oppoq* va *hokazo*. Sifatlarni takrorlab, takroriy sifatlarni yasash orqali ham ma'no kuchaytirilishi mumkin: *katta-katta*, *yaxshi-yaxshi*, *lo'ppi-lo'ppi*, *og'ir-og'ir* va *boshqalar*. Masalan:



a) Qorong‘i tushgandan keyin, Hatamova, o‘rta yoshlardagi barvasta bir kishi va qop-qora bir qiz bilan kirib keldi. (Abdulla Qahhor “Daxshat”, 55-bet)

b) Palata eshigi oldida bizni hindiga o‘xshagan qop-qora, katta-katta ko‘zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo‘lladi. (Abdulla Qahhor “Daxshat”, 58-bet)

2) **Morfema:** Ingliz tilida *–less, reckless, –in, un-, non- and etc.* O‘zbek tilida *–mas, qaytmas, tolmas, –siz, yuraksiz, be-, benomus, bebaxo va hokazo.* Masalan:

a) I thank you again and again for the honour you have done me in your proposals, but to accept them is absolutely impossible. (Jane Austen “Pride

b) O‘lmas ixtiyorsiz qulog‘ini ushlab, sekin yotoqqa tomon burilgan edi, Murod to‘xtatdi. (Abdulla Qahhor “Yillar”, 36-bet)

3) **Leksema:** Ingliz tilida *impossible, inadvisable, never-ending, non-stop, nevermore, never-never land, forever and ever and so on.* O‘zbek tilida *engilmas, borsa kelmas, qaytmas, olg‘ir va hokazo.* Masalan: He promised to be her friend forever and ever. (Macmillian English Dictionary, p.2034)

4) **Frazema** (So‘z birikmasi orqali ifodalanadi): Ingliz tilida *immovable hostility, impassable road, incompatible ideas and so on.* O‘zbek tilida *ko‘zginamning oq-u qorasi, yo‘g‘-u borim, osh-u nonim va boshqalar.* Masalan: Bulardan biri qishloq maktabining qorovuli va farroshi – Qumriniso degan nimjongina bir xotin. (Abdulla Qahhor “Xotinlar”, 43- bet)

5) **Sentensema** (Sentensemalarning barcha: sodda, qo‘shma va aralash turlari orqali ifodalanadi.) Masalan:

a) But here is an artist. He desires to paint you the dreamiest, shadiest, quietest, most enchanting bit of romantic landscape in all the valley of the Saco. (“Moby Dick” by Herman Melville, p.24)



b) Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko‘zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi. (Abdulla Qahhor “O‘g‘ri”, 7-bet)

**6) Frazeoema** (“Mubolag‘a” semantikasi har qanday tilda frazeoemalar ya’ni frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Ular taqdim etilayotgan fikrga emotsionallik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. ) Ingliz tilida *to make a mountain out of a molehill, to feel like a million dollars, chicken-hearted, to give the cold shoulder, as cool as a cucumber, to cost an arm and a leg, dressed to kill/the nines and etc.* O‘zbek tilida *o‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq, qudachilik-ming yilchilik, jonini jabborga bermoq, oyni etak bilan yopmoq, oyog‘ini qo‘liga olib chopmoq, o‘pkasini qo‘ltiqamoq, terisiga somon tiqmoq va ko‘plab boshqa misollar.* Masalan:

- a) She is feeling like a million dollars. (Macmillian English Dictionary, p. 1987)
- b) Yerr haydasang, kuz hayda,  
Kuz haydamasang, yuz hayda.

**7) Tekstema** (Bu usulda gradatsiya va klimakslardan foydalaniladi.) Uni yana diskursema deb ham atash mumkin. Gradatsiya yoxud klimaks “mubolag‘a” semantikasini voqelantirishga yordamlashuvchi stilistik vositalardan biri hisoblanib, u kuchli lof urishga, mubolag‘aga asoslanadi. Bunda bo‘rttirish so‘zdan so‘zga qarab kuchayib boraveradi. Ya’ni bir xil so‘z turkumiga oid bo‘lgan uyushiq bo‘laklar zanjiri yaratiladi va natijada mubolag‘a hosil bo‘ladi. Muhim jihati shundan iboratki, bunda mubolag‘ani davom ettirayotgan so‘z oldingi bo‘lakdan, albatta, kuchliroq bo‘lishi shart. Masalan:

- a) Ohim ko‘kdan, falakdan, samodan o‘tdi. (8-sinf ona tili darsligi, 45-bet)
- b) I beg you a thousand pardons; to be scared to death; to be tickled to death. (D. Ashurova “Stilistika va matn tahlili”, p. 32)

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “mubolag‘a” semantikasi averbal vositalar orqali ham ifodala



Averbal vositalar paralingvistik vositalar (“Paramiovema” Xoshimov 2017, 13) deb ataladi hamda ular inson tanasining turli a’zolari: yuz, ko’zlar, lablar, qoshlar, bosh, elka kabilarning harakati yordamida amalga oshiriladi. Masalan:

- a) Bu gapni eshitib ular xangu-mang bo’lib qolishdi (og’zi ochilib).
- b) Men gapirsam xammaning og’zini lang ochaman (ochib ko’rsatadi).

Yuqorida keltirib o’tilgan verbal hamda averbal vositalar guruhining tasnifini quyida namoyish etilgan Ingliz va O’zbek tillarida mubolag’a “maydoni” diagrammasi orqali yana bir bor xotirada mustahkamlaymiz. Biz taqdim etayotgan diagrammada verbal vositalar guruhini tashkil etuvchi fonema, morfema, leksema, frazema, frazeoema, sentencema va tekstema hamda averbal vosita asosini tashkil etuvchi paralingvema turli ranglar orqali ifodalangan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. J.B.Qoraboev. “Mubolag’a konseptual semantika”sini voqealantiruvchi verbal va noverbal vositalar tizimiga xos universal qonuniyatlar. BuxDU ilmiy axboroti 2017/1 (65)
2. Alimardon, T., Sherzod, L., & Gulbaxor, M. (2022, December). ON FACTORS INFLUENCING THE RIGHT APPROACH TO GRAMMAR INSTRUCTION. In “*ONLINE-CONFERENCES*” PLATFORM (pp. 137-140).
3. Sherzod, L., & Abdulkhay, K. (2023). EXAMPLES FOR LEXICAL GAPS IN ENGLISH. *TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 160-163.
4. Mansurjonova, Gulbahor Muhammadsobir Qizi (2023). XURSHID DO’STMUHAMMADNING “BOZOR” ROMANIDA ANTIUTOPIK G’OYALAR TASVIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (4), 272-275.
5. D. Ashurova “Stilistika va matn tahlili” Toshkent, p. 32
6. A. Qahhor “O’g’ri” Toshkent 1936, 7-bet.